

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI

**Mirzaliyev Muxtorjon Murod o'g'li**

Menejment va zamonaviy texnologiyalar universiteti

“Raqamli iqtisodiyot” yo‘nalishi magistranti

E-mail: [muxtor1119090@gmail.com](mailto:muxtor1119090@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqola iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar asosida transformatsiyalashishi sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, xizmat ko‘rsatish, yalpi ichki mahsulot, eksport.

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ СЕРВИСА В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Мирзалиев Мухторжон Мурад угли**

Магистрант Университета управления и современных технологий по специальности «Цифровая экономика»

E-mail: [muxtor1119090@gmail.com](mailto:muxtor1119090@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

Статья посвящена вопросам повышения эффективности предприятий сферы услуг в условиях трансформации экономики на основе цифровых технологий.

**Ключевые слова:** Цифровая экономика, цифровые технологии, услуга, валовой внутренний продукт, экспорт.

## ACTIVITY OF SERVICE ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY

**Mirzaliyev Muxtorjon Murod ugli**

Graduate student of “Digital Economy” department of the University of Management and Future Technologies

E-mail: [muxtor1119090@gmail.com](mailto:muxtor1119090@gmail.com)

## ABSTRACT

The article is devoted to issues of increasing the efficiency of service enterprises in the context of the transformation of the economy based on digital technologies.

**Keywords:** Digital economy, digital technologies, services, gross domestic product, export.

## KIRISH

Xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti va turizm sohasi iqtisodiy faoliyatning eng istiqbolli turlaridan biridir. Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, xizmatlar ishlab chiqarish hajmi va ulardan daromadlar ortib bormoqda. Jahon savdo tashkiloti tasnifiga ko'ra xizmatlar ko'rsatish iqtisodiyoti 150 dan ortiq turli xil xizmatlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, biznes xizmatlari, aloqa xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, ta'lim xizmatlari, turizm va unga tegishli xizmatlar, transport xizmatlari, transport va dam olish hamda madaniy va sport tadbirlari singari turlari mavjud [9]. Shundan ko'rinib turibdiki hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy faoliyatning asosiy turi hisoblanadi. Deyarli har bir kishi u yoki bu xizmatdan foydalanadi. Raqamli iqtisodiyot eng avvalo keng polosali internet portlarini yaratishni, optik tolali internet liniyalarini yotqizishni taqozo qiladi. Ushbu muammolarni inobatga olgan holda hamda mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratish hozirda dolzarb hisoblanadi.[1]

## ASOSIY QISM

Keyingi yillarda raqamli iqtisodiyot tushunchasi ko'plab mamlakatlar iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turadi. Raqamli iqtisodiyotning inson hayoti barcha jabhalariga ta'sirini sezish qiyin emas. Hozirgi kunda sayyoramizning ko'pchilik aholisi internetga kirish imkoniyatiga ega va raqamli xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti xizmatlaridan foydalanishi mumkin, ijtimoiy tarmoqlar, turli mesendjerlar allaqachon shaxslararo muloqotning asosiy ajralmas qismiga aylangan

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida keyingi o'n yilliklarida xizmat ko'rsatish sohasi davlatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilab bermoqda. Sanoat va qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarning joriy qilinishi hamda ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi xizmatlar sohasini bandlikning asosiy manbaiga aylanib bormoqda. Servis sohasining rivojlanishi universal jarayon bo'lib, so'ngi o'n yillikda quyidagi tendensiyalar uyg'unligi bilan belgilanadi:[3]

- ijtimoiy hayot va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi;

- barqaror rivojlanish, globallasuv hamda insonparvarlashuvning ijtimoiy iqtisodiy jarayonlari;

- xizmat ko'rsatish tendensiyalari va gibridd mahsulotning paydo bo'lishi;

- hamkorlik iqtisodiyoti va birgalikdagi iste'mol iqtisodiyotining rivojlanishi;[3]

Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida servis sohasini barqaror rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir.

Raqamli iqtisodiyot tovarlar va xizmatlarni yaratish, ilgari surish va sotish bilan bog'liq barcha biznes jarayonlarni raqamlashtirishni o'z ichiga oladi. Raqamli ma'lumotlar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanib, kompaniyalarning asosiy aktiviga aylanib, barcha iqtisodiy faoliyatda asosiy rol o'ynaydi.[2]

Yaxlit global tarmoqda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlovchi xizmat ko'rsatish biznesining axborot muhiti alohida ahamiyatga ega. Raqamli infratuzilma raqamli asosda ishlaydigan kompaniyalarning hisoblash, telekommunikatsiya, tarmoq ehtiyojlarini ta'minlaydigan texnologiyalar majmuasini o'z ichiga oladi.[6]

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bugungi kunda barcha sohalarda katta ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Masalan, jahon banki mutaxassislarining tadqiqotlari ko'rsatishicha, tezroq Internetdan foydalanuvchilar sonining atigi 10 %ga ko'paytirilishi milliy iqtisodiyot yalpi ichki mahsuloti hajmini har yili 0,4-1,4 %ga oshishiga turtki bo'lmoqda. Jahonda raqamli iqtisodiyot o'sishining sur'atlari hozirning o'zida yiliga deyarli 20 %ni tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 %ga etgan. Ular bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta foyda ko'rmoqda. Jumladan, AQSh yiliga 400 mlrd. dollardan ko'proq «raqamli xizmat»larni eksport qilmoqda.[4]

Raqamli iqtisodiyotning xususiyatlaridan biri - bu yuqori tezlikda ma'lumotlarni qayta ishlash hisoblanadi. Tezlik hamma sohalarda o'smoqda, ayniqsa buyurtmalarni bajarishda, ma'lumotlarni jo'natish va qabul qilishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu tovar aylanishini tezlagining oshishiga va o'z navbatida, inqirozli holatlarning kamayishiga olib keladi.

Butun dunyoda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi juda yuqori sur'atlarda sodir bo'lmoqda. Mutaxassislarning bahosiga ko'ra, ushbu sektor qatnashchilari yaqin kelajakda yaxshi raqamli foyda olishadi. Shuningdek, iqtisodiyotda ishsizlik darajasining kamayishi, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish xarajatlarini qisqarishiga erishiladi.[5]

Hozirda respublikamiz iqtisodiyotini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va xizmatlar sohasini modernizatsiyalash jarayonida xizmat ko'rsatish korxonalarini doimiy ravishda transformatsiyalanib boruvchi iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishi, ularning xo'jalik faoliyatida xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Bu ayniqsa, pandemiya davrida yaqqol namoyon bo'ldi va ko'p sohalarning raqamli iqtisodiyotga asoslanib ishlashining tezlashishiga olib keldi.

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iste'molchilar talabini to'liq va nisbatan tezroq qondirish, xizmat ko'rsatish sohalari va tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi.[6] Elektron tijorat tovarlar va xizmatlar realizatsiyasini tezlashtirish asosida inqirozlarni oldini olish imkonini beradi. Bunda virtual to'lovlar tizimi tovar aylanishini tezlashtiradi. Internet reklama esa o'z navbatida reklama auditoriyasini yanada kengaytirib, nafaqat ma'lum bir hudud, balki butun dunyo miqyosida kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyotning muhim muvoffaqiyat omili bo'lib, davlat, tadbirkolik va fuqarolik jamiyati uchun kelgusidagi holatlar va muammolarni modellashtirish va operativ ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishni nazarda tutuvchi ma'lumotlar va boshqaruv texnologiyalarining yangi modeli hisoblanadi.

Shunga ko'ra, respublikamiz hukumati tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli choralar ishlab chiqilmoqda. Ushbu jarayonda sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida korxonalar xodimlarini va resurslarini samarali boshqarish, xizmat ko'rsatish standartlariga rioya qilish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning iste'molchilar talablariga mos kelishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu esa xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va iqtisodiy faoliyatning bevosita axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlantirilishi bilan bog'liq bo'lgan raqamli ma'lumotlar vositasida xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi. Xizmatlar sohasining bunday taraqqiy etishi esa, mamlakat iqtisodiyotining yanada barqarorlashuvi hamda aholi turmush darajasining oshishiga yordam beradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirish bugungi kunda milliy iqtisodiyotimiz oldida turgan vazifalardan biri bo'lib, raqamli texnologiyalar asosida sifat va samaradorlikni oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish zarratini keltirib chiqaradi.[8]

### **XULOSA**

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha davlat o'z rolini

muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda, bu erishilgan natijalar va yaqin istiqbolga mo'ljallangan ulkan maqsadlardan dalolat beradi.

Xizmatlar sohasini raqamlashtirish mehnat bozorida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat bozorining tuzilishi ham o'zgarib bormoqda, ayrim kasblarining yo'qolib borishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi bashorat qilinmoqda. Raqamli xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida ishlash uchun yangi kognitiv, ijtimoiy xulq-atvor va raqamli ko'nikmalar talab qilinadi, ular raqamli iqtisodiyotda ishlashga qodir kadrlarni tayyorlash jarayonida shakllanishi lozim. Raqamli iqtisodiyot katta hajmdagi axborotni qayta ishlashga asoslanganligi sababli, xodimlarning raqamli kompetensiyalari, xavfsizligi, ishonchliligi, katta hajmdagi axborotni uzoq muddat saqlashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha manbalar, qulay tabiiy-iqlim sharoit, boy tarixiy madaniy me'ros umuman olganda yuqori salohiyat mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, sohani raqamlashtirish va uni yanada takomillashtirish yalpi hududiy mahsulotning oshishiga, ishsizlikning qisqarishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga zamin yaratadi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Maxmudova A. N. i dr. Meditsina Uzbekistana-dostijeniya i perspektivy razvitiya sferы //Dostijeniya nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 3 (57).
2. Maxmudova A. N. IX-XII asrlarda movarounnahrda ilm-fan, madaniyat rivoji tarixidan //Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovasiyalar. – 2022. – S. 272-275.
3. Maxmudova A. N. i dr. Rol molodogo pokoleniya v formirovanii sovremennogo grajdanskogo obщestva //Dostijeniya nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 3 (57).
4. Maxmudova A. N. PRAVOVAYa SOÖIALIZAÖIYa MOLODOGO POKOLENIYa V PRAVOVOM GOSUDARSTVE //distanöionnye vozmoænosti i dostiæeniya nauki. – 2020. – S. 97.
5. Maxmudova A. N. Shaxs xuquqiy ijtimoiylashuvida ijtimoiy nazorat tushunchasi va tizimi //mejdunarodnyy jurnal Konsensus. – 2020. – T. 1. – №. 1.
6. Nugmanovna M. A. et al. EDUCATION OF TOLERANCE IN YOUNGER GENERATION //Conferencea. – 2022. – S. 52-55.

7. Nugmanovna M. A., Kamariddinovna K. A. Modern biotechnical problems of medicine and their solutions //Archive of Conferences. – 2021. – T. 13. – №. 1. – S. 169-173.
8. Nugmanovna M. A. et al. EDUCATION OF TOLERANCE IN YOUNGER GENERATION //Conferencea. – 2022. – S. 52-55.
9. Kamariddinovna K. A., Nugmanovna M. A. IMPROVING POPULATION HEALTH THE IMPORTANT TASK OF THE STATE //Archive of Conferences. – 2021. – T. 17. – №. 1. – S. 204-208.